

## TARIX. “MILLIY SERTIFIKAT” DIAGNOSTIK TESTI (8-variant)

1.

Quyida keltirilgan ma'lumotlardan qay biri tarixiy jihatdan noto'g'ri berilgan?

- A) Rim imperatori Trayan I Parfiya podsholigi bilan muvaffaqiyatlari urush olib borgan bo'lib, uning davrida Rim imperiyasi o'z tarixidagi eng katta hududlarga ega bo'lgan
- B) Yuqori Misr podshosi Menes mil. avv. 3000-yilda Janubiy va Shimoliy Misrni birlashtirib, yagona Misr davlatiga asos solgan va qadimgi Misrning ilk fir'avni bo'lgan
- C) Rim hukmdori Oktavian Avgust mil. avv. 30-yilda Misrni zabit etib, Ptolemylar sulolasining hukmronligini tugatgan va Misrni Rim viloyatiga aylantirgan
- D) Salavkiylar hukmdori Antiox I davrida Bagriya Salavkiylar davlati tarkibidan ajralib chiqib, Diodot I tomonidan Yunon-Baqtriya davlati asos solingan

2.

Quyida berilgan **tarixiy shaxslar va ular davrida amalga oshirilgan ishlari** to'g'ri moslashtirilgan javobni aniqlang.

- 1) Filipp IV Chiroli; 2) Karl VI Telba;  
3) Ioann Yersiz; 4) Genrix II Plantagenet;  
a) Uchinchi salib yurishi bo'lib yakunlandi;  
b) Fransyaning 1/3 qismi inglizlar tasarrufiga o'tdi;  
c) Normandiya Fransiya tasarrufiga o'tdi;  
d) "qalqon puli" solig'i joriy etildi;  
e) inglizlar va fransuzlar o'rtaida Puate jangi bo'lib o'tdi;  
f) Papa Klement V papalik qarorgohini Avignon shahriga ko'chirdi;  
g) inglizlar Parij shahrini egalladi;
- A) 1-f, 2-b, 3-e, 4-d      B) 1-f, 2-b, 3-c, 4-g  
C) 1-e, 2-g, 3-a, 4-a      D) 1-f, 2-g, 3-c, 4-d

3.

Quyida berilganlardan qaysilarida **davlat-shaxs (davlat yoki hukumat rahbari)-voqeasi** mosligi to'g'ri berilgan?

- 1) Rossiya – Mixail Gorbachyov – Belovej shartnomasini imzolab, MDHni tuzishda asosiy rol o'ynadi;
- 2) Misr – Anvaar Saadat – SSSR bilan barcha aloqalarni uzib, AQSH bilan yaqinlashdi va uning yordamida iqtisodiy rivojlanishni boshladi;
- 3) Afg'oniston – Homid Karzay – MDHga kuzatuvchi sifatida qo'shilish istagini bildirdi;
- 4) Tojikiston – Imomali Rahmon – Olmaota deklaratsiyasi imzolanib, mamlakat Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo bo'ldi;
- 5) Xitoy – Mao Szedun – AQSH prezidenti Richard Niksonning Pekinga tashrifidan so'ng ikki davlat o'rtaсидаги узоқ ўйликsovq munosabatlar yumshadi;
- 6) Chexoslavkiya – Aleksandr Dubcek – "Praga bahori" nomi bilan tarixga kirgan inqilob natijasida hokimiyatdan mahrum bo'ldi.

- A) 1, 2, 3, 4      B) 2, 4, 5, 6      C) 1, 3, 5, 6  
D) 2, 3, 5, 6

4.

Quyidagi tarixiy voqealar (ma'lumotlar) to'g'ri xronologik ketma-ketlikda ko'rsatilgan javobni toping (yangi tarix).

- 1) zuluslar hukmdori Ketchvayo uch to'qnashuvda inglizlarning yigirma minglik qo'shinini qirib tashladi; 2) Ikkinci ingliz-afg'on urushi tugadi; 3) Afrika hududlarini bo'lib olish bo'yicha Berlin konferensiyasi boshlandi; 4) Sudanda Muhammad Ahmad boshchiligidagi Misr-Turk zulmiga qarshi xalq urushi boshlandi; 5) Meksikada qullik bekor qilindi; 6) Bryussel konferensiyasida qullikni taqiqlovchi xalqaro akt imzolandi.

- A) 2, 1, 4, 3, 5, 6      B) 5, 2, 1, 4, 3, 6  
C) 2, 1, 3, 4, 6, 5      D) 5, 1, 2, 4, 3, 6

5.

Quyida berilgan atamalar va ularning izohi **to‘g‘ri moslashtirilgan javobni toping**.

- I** Repatriatsiya
- II** Metropoliya
- III** Anneksiya
- IV** Sekulyarlik
- V** Izolyatsionizm

- a** boshqa bir davlat hududini butunlay yoki qisman egallab olish yoki o‘z davlatiga qo‘sib olish siyosati
- b** hukumatning barcha dirlarni teng ko‘rib, ularning qonunchilikka ta’sir ko‘rsatishini cheklamagan holda faoliyat yuritishi haqidagi tushuncha
- c** Urush olib borayotgan tomon qurolli kuchlarining boshqa davlat yerlarini bosib olib, vaqtincha egallab turishi
- d** Xalqaro huquqda urushda ko‘rilgan zararni to‘la yoki qisman qoplash uchun yengilgan davlat tomonidan g‘olib davlatga to‘lanadigan tovon
- e** Urush oqibatida vatanidan tashqariga chiqib qolgan harbiy asirlar, fuqarolarni, fuqarolik huquqi tiklangan muhoxirlarni o‘z vataniga qaytarish
- f** Boshqa davlatlar, millatlar, xalqlar, etnik guruhlarning ishlariga aralashmaslik g‘oyasiga asoslangan tashqi siyosat yo‘nalishi
- g** Hukumat va boshqa huquq manbalari dinning har qanday turidan alohida bo‘lishi kerakligi haqidagi tushuncha
- h** O‘zga mamlakatlarni bosib olib, o‘z mustamlakasiga aylantirgan imperialistik davlat

- A) I-d, II-h, III-c, IV-b, V-f      B) I-e, II-h, III-a, IV-b, V-f      C) I-e, II-h, III-a, IV-g, V-f  
D) I-e, II-c, III-h, IV-g, V-a

6.

Quyida berilgan atamalar va ularning izohi **to‘g‘ri moslashtirilgan javobni toping**.

- I** Proteksionizm
- II** Avtarkiya
- III** Monokultura
- IV** Anarxizm
- V** Segregatsiya

- a** Mamlakatning o‘z-o‘zini ta‘minlashga asoslangan va boshqa davlatlar bilan iqtisodiy aloqalardan uzilgan biqiq xo‘jalik siyosati
- b** Ayrim davlatlarda aholini majburan irqiy guruhlarga bo‘lish siyosati
- c** Bitta mamlakatda va butun dunyoda madaniyatlar xilmassalligini saqlab qolishga yo‘naltirilgan siyosat
- d** Davlatning milliy iqtisodiyotni himoya qilish uchun chet el tovarlari va xizmatlariga nisbatan cheklovlar qo‘llash siyosati
- e** Boshqa davlatlar, millatlar, xalqlar, etnik guruhlarning ishlariga aralashmaslik g‘oyasiga asoslangan tashqi siyosat yo‘nalishi
- f** Jamiyatda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarishini qo‘llab-quvvatlab, davlat hokimiyatining minimal darajada bo‘lishini targ‘ib qiluvchi siyosat
- g** Alohida bir shaxsning xohish-irodasining tan olib, har qanday hokimiyat va davlat tuzumini rad etuvchi ta’limot
- h** Al mashlab ekishga amal qilmagan holda dalada faqat bir xil ekinni muttasil yetishtirish

- A) I-a, II-g, III-c, IV-f, V-b      B) I-d, II-g, III-h, IV-f, V-a      C) I-d, II-a, III-c, IV-g, V-b  
D) I-d, II-a, III-h, IV-g, V-b

7.

### Tarixiy shaxsni aniqlang.

*U milliy-hududi chegaralanish siyosati davrida faol ishtirok etib, RKP(b) MK O'rta Osiyo byurosi tomonidan tashkil etilgan O'zbeklar byurosida faoliyat olib borgan. Keyinchalik 1924-yilda O'zbekiston SSR Muvaqqat Inqilobiy Qo'mitasi (Markaziy Revkom) tarkibiga kiritilgan va shu tariqa mamlakat boshqaruvida muhim rol o'yagan. Biroq siyosiy voqealar tazyiqi ostida qolib, "O'n sakkizlar guruhi" a'zosi sifatida qatag'onga uchragan. Uning siyosiy faoliyati Buxoro Xalq Sovet Respublikasining dastlabki hukumat tarkibida ichki ishlar noziri lavozimida xizmat qilgan davridan boshlangan edi*

- A) Inomjon Xidrialiyev
- B) Usmonxo'ja Po'latxo'jayev
- C) Muxtorjon Saidjonov
- D) Abdulqodir Muhiddinov

8.

### Tarixiy shaxsni aniqlang.

*Quyida berilgan ma'lumotlar qaysi hukmdor haqida ekanligini aniqlang. U 1819–1830-yillarda mamlakat prezidenti bo'lgan.*

*U pomeshchiklarning yerlarini musodara qilish to'g'risidagi qonun loyihasini ishlab chiqqan. Biroq bu loyiha pomeshchiklar tomonidan qattiq qarshilikka uchrab, amalga oshmay qolgan. Butun hokimiyati davrida pomeshchiklar unga qarshi bo'lib, oxir-oqibat uning iste'foga chiqishiga erishishgan.*

- A) Simon Bolivar
- B) Xose San Martin
- C) Avraam Linkoln
- D) Kamillo Kavur

9.

### Tarixiy davlatni aniqlang.

*X asrda tashkil topgan ushbu davlatning poytaxti Sonak shahri bo'lgan. Keyinchalik butun mintaqaning nomi ushbu davlat nomidan kelib chiqgan. Dastlabki hukmdor o'z oldiga yo'qotilgan hududlarni qaytarish maqsadini qo'ygan, biroq bu reja amalgalashmagan. Davlat buddizm va an'anaviy konfutsiylik ta'limotlarini qo'llab-quvvatlab, madaniy va ilmiy jihatdan yuksalgan. Biroq ichki ziddiyatlar va feodal kurashlar tufayli zaiflashgan mo'g'ullar tomonidan bosib olinib, qariyb bir yarim asr davomida ularning ta'sirida qolgan. XIV asrga kelib mo'g'ullarning ta'siri susayib, yangi sulola hukmronlik qila boshlagan va davlat nomi ham o'zgargan.*

- A) Choson qirolligi
- B) Koryo qirolligi
- C) Koguryo qirolligi
- D) Silla qirolligi

10.

### Tarixiy davlatni aniqlang.

*Ushbu imperiya VII asr boshlarida tashkil topib, Hindiston shimalida katta hududlarni egallagan. Davlat poytaxti madaniy va ilmiy markaz sifatida rivojlangan bo'lib, hukmdor har yili dunyoning mashhur olimlari ishtirokida anjumanlar o'tkazgan. Hukmdor o'z ajdodlarining diniy e'tiqodidan farqli ravishda buddaviylikni qabul qilib, ibodatxonalar qurilishiga katta mablag' ajratgan. Imperiya tarkibiga ko'plab vassal davlatlar kiritilgan bo'lib, ular hukmdorga bo'ysungan, ammo vaqt o'tishi bilan mustaqillikka intila boshlagan. Davlat rojalik tizimi asosida boshqarilgan, biroq ichki ziddiyatlar tufayli zaiflashgan. Hukmdor vafotidan so'ng imperiya sekin-asta parchalanib, XIII asrgacha Hindistondagi eng yirik davlat sifatida mavjud bo'lgan.*

- A) Mauriylar imperiyasi
- B) Kushon imperiyasi
- C) Guptalar imperiyasi
- D) Xarsha imperiyasi

11.

**BMTni tuzish g'oyasi** dastlab quyidagi qaysi tarixiy shaxslarning imzolagan deklaratsiyasida o'z aksini topgan?

1) Mao Szedun; 2) Franklin Ruzvelt;  
3) Sharl de Gol; 4) Garri Truman;  
5) Uinston Cherchill; 6) Chan Kayshi;  
7) Iosif Stalin.  
A) 1, 2, 3, 5      B) 2, 5, 6, 7  
C) 1, 2, 5, 7      D) 3, 4, 5, 6

12.

Quyidagi ma'lumotlarga mos yakuniy **xulosalar (to'g'ri/noto'g'ri)** keltirilgan javobni aniqlang.

I. Turkistonda A. Kuropatkin general-gubernatorligi davrida Nazirxo'ja Eshon va Abdurahmon Jevachi boshchiligidagi Jizzax qo'zg'oloni ko'tarilgan;

II. Sayid Olimxon davrida Buxorodagi barcha jadid Rossiya imperiyasi tomonidan yopib qo'yilgan.

III. So'nggi Qo'qon xoni Xudoyorxon Makkadan qaytib kelayotganda kasalga chalinib, 1882-yilda Afg'onistonda vafot etadi.

IV. Turkiston general-gubernatori S. Duxovskoy davrida Toshkent orqali Andijonga temiryo'l qurib bitkazilgan;

V. Nikolay II 1898-yilgi Andijon qo'zg'olonidan keyin Turkiston general-gubernatori A. Vrevskiy lavozimidan chetlatib, uning vazifasini Sirdaryo viloyati harbiy gubernatori N. Korolkov zimmasiga yuklagan.

- A) I-to'g'ri; II-to'g'ri; III-noto'g'ri;  
IV-to'g'ri; V-to'g'ri  
B) I-noto'g'ri; II-to'g'ri; III-to'g'ri;  
IV-to'g'ri; V-noto'g'ri  
C) I-noto'g'ri; II-noto'g'ri; III-noto'g'ri;  
IV-noto'g'ri; V-to'g'ri  
D) I-noto'g'ri; II-to'g'ri; III-noto'g'ri;  
IV-to'g'ri; V-to'g'ri

13.

Quyidagilardan **1940-yillar tarixiga oid bo'lганларни belgilang.**

1) urushlar tarixida birinchi tankning qo'llanishi; 2) Holokost; 3) "Qullik haqida konvensiya"; 4) AQSHda ilk vodorod bombasining yaratilishi; 5) Atlantik xartiya.

A) 2, 4      B) 4, 5      C) 1, 3      D) 2, 5

14.

Ma'lumki, 1890-yillarda Fransiyada "**Dreyfus ishi**" deb nom olgan jinoyat ishi qo'zg'atilgan. Siyosiy kuchlar bu jinoyat ishidan, asosan, qanday maqsadda foydalanganlar?

A) *mamlakatda respublikachilik g'oyalarini mustahkamlash*  
B) *sotsialistik va komunistik qarashlarning tarqalishini rag'latlanrish*  
C) *monarxiyani qayta tiklash harakatini qo'llab-quvvatlash*  
D) *aholi orasida demokratiyaga qarshi tashviqotni kuchaytirish*

15.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti **Shavkat Mirziyoyev 2017-yilda 19-sentyabrdagi BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida** qanday takliflarni ilgari surgan?

1) Afg'onistonda tinchlikni ta'minlash maqsadida NATO tarkibidagi qurolli kuchlarni joylashtirish;  
2) Bosh Assambleyaning "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolyutsiyani qabul qilish  
3) BMTning Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyani ishlab chiqish;  
4) Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasini tashkil etish;  
5) Markaziy Osiyoda suv resurslaridan oqilona foydalanish.

A) 1, 2, 4      B) 2, 3, 5      C) 1, 3, 5  
D) 2, 3, 4

**16.**

Mustaqil O'zbekiston boshqaruvi va tarixi bilan bog'liq **to'g'ri berilgan ma'lumotlarni aniqlang.**

- 1) prezident Shavkat Mirziyoyev davrida O'zbekistondagi prezidentlik saylovlari tarixida ilk bor ayol kishi nomzodi ilgari surilgan;
  - 2) qonunchilikka muvofiq, O'zbekistonda soliqlarni joriy etish huquqi faqatgina O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga tegishli hisoblanadi;
  - 3) Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2018-yil 9-yanvarda "O'zbekiston Respublikasi Mudofaa doktrinasi to'g'risida"gi qonun qabul qilingan;
  - 4) 2005-yildan boshlab mamlakatimiz tarixida ilk bor O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatadan Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senatdan (yuqori palata) iborat tarzda ish boshlagan;
  - 5) 1995-yilda davlat va jamiyat xavfsizligini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Xavfsizlik kengashi tuzilgan;
  - 6) 1992-yilda prezident farmoni asosida asosida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo'jalik sudi birlashtirilib, fuqarolik, jinoiy, ma'muriy va iqtisodiy sud ish yurituv sohasidagi sud hokimiyatining yagona oliy organi – O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tashkil etilgan;
  - 7) 1992-yil martda Toshkentda birinchi bo'lib AQShning elchixonasi ochildi.
- A) 1, 2, 3, 4      B) 1, 3, 5, 6      C) 2, 3, 4, 7  
D) 2, 4, 5, 7

**17.**

Quyidagi qaysi islohotlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti


**Shavkat Mirziyoyev davrida** amalga oshirilgan?

- 1) Oliy ta'limdan keyingi ta'lim aspirantura (3 yil) va doktoranturaga (3 yil) ajratildi;
- 2) milliy valyuta – so'mni erkin konvertatsiyalash tizimiga o'tildi;
- 3) 12 yillik majburiy ta'limdan 11 yillik ta'limga o'tildi;
- 4) Oliy Majlisda 150 nafar deputat, 100 nafar senator bo'lishi belgilanib, parlament a'zolari soni qisqartirildi.

A) 1, 2      B) 2, 3      C) 2, 4      D) 1, 3

18.

Xaritada qaysi raqam ostida berilgan davlatlar **Yevropa erkin savdo assotsiatsiyasi (YESA)** tashkilotini ta'sis etishgan?



- A) 1, 2, 4, 5      B) 2, 3, 5, 6      C) 2, 4, 7, 8      D) 1, 3, 6, 7

19.

Tarixiy voqealarni o'zaro **mos berilgan qatorlarni toping.**

Nº	Voqea	Natija
1	“Qayta qurish” siyosati boshlanishi	Varshava tashkiloti kuchlari mamlakatga qo’shin kiritishi ortidan isyon bostirilib, islohotchi Imre Nad hibsga olingan
2	Rossiya Qrimni anneksiya qilishi	Pyotr Poroshenko MDHdan chiqish jarayonini boshladi
3	Savr inqilobi	Nur Muhammad Taraqqiy o’ldirilib, hokimiyatni Hafizullo Amin o’z qo’liga oldi
4	Koreya urushining yakunlanishi	Janubi-sharqiy Osiyoda AQSH tajovuzining to’liq mag’lubiyatga uchradi
5	Portsmut shartnomasining imzolanishi	Yaponiyaga Janubiy Saxalin ega bo’ldi
6	Talas jangi (751)	Arablarining sharq tomon kengayishi to’xtab qoldi
7	Parij ahdnomasining kuchga kirishi (1955)	Germaniyada okkupatsiya davri tugashi

- A) 1, 2, 4, 7    B) 2, 5, 6, 7    C) 2, 3, 5, 6    D) 2, 4, 6, 7

20.

Jadvalda harflar bilan belgilangan kataklarga quyida berilgan ma'lumotlardan **moslarini qo'yib to'g'ri javobni toping.**

Davr	O‘zbekiston tarixidagi voqea	Jahon tarixidagi voqea
1886-yil	a	b
1885-yil	Andijonda Darvishxon boshliq isyon ko’tarildi	c
d	e	Choson o’zaro urushlar va xitoyliklar bilan bo’lgan janglar tufayli uch qirollikka bo’linib ketdi


**Ma'lumotlar:** 1) Hindistonda HMK tarkibida Tilak boshchiligidagi so'l radikal oqim shakllandı; 2) mil. avv. I asr; 3) mil. avv. V asr; 4) Britaniya o’z qirolichasi Viktoriyani Hindiston imperatori deb e’lon qildi; 5) Gurganch (Ko’hna Urganch) shahri vujudga keldi; 6) viloyat sudsulari tugatildi, ularning o’rniga okrug sudsulari tashkil etildi; 7) Turkistonda sud tergovchiları, viloyat prokurori, ularning yordamchiları lavozimi joriy etildi; 8) Xiva shahri bunyod etildi; 9) “Qo’shma Shtatlar va Kanada uyushgan tred-yunionlari va ishchi ittifoqi federatsiyasi” Amerika Mehnat Federatsiyasi degan nom oldi; 10) Bombey shahrida “Hindiston milliy kongressi” (HMK) tuzildi.

- A) a-7, b-4, c-10, d-2, e-5    B) a-7, b-9, c-10, d-2, e-8  
C) a-7, b-9, c-1, d-3, e-8    D) a-6, b-9, c-1, d-3, e-5

21.

Quyida berilgan ma'lumotlarni tahlil qilib Eyler-Venn diagrammasiga **mos keladigan javoblarni aniqlang**.

Fransua Olland Angela Merkel



- a) o'zining siyosiy faoliyati davomida boylar uchun qo'shimcha soliq o'rnatish tashabbusini ilgari surgan;
  - b) Minsk-2 shartnomasida tomonlarni kelimishtirish jarayonida muhim rol o'ynagan yetakchilar qatorida bo'lgan;
  - c) ISHIDga qarshi xalqaro koalitsiya shakllantirish tashabbusi bilan chiqqan;
  - d) nufuzi tushib ketganligi uchun 2017-yili bo'lib o'tgan saylovlarda o'z nomzodini qo'yagan;
  - e) uning davrida mamlakat Yevropa Ittifoqining yetakchi davlatiga aylandi;
  - f) Bratslavada bo'lib o'tgan Yevropa Ittifoqi davlatlarining yig'ilishida nutq so'zlab, YI og'ir inqirozda ekanligini tan olgan;
- A) I - a, d; II - b, c; III - f  
B) I - d, f; II - a, c; III - b  
C) I - a, d; II - e, f; III - b  
D) I - a, f; II - e; b; III - d

22.

Qaysi javobda **Yangi tarixda Yevropada** barpo etilgan madaniy yodgorliklarning nomi keltirilgan?

- A) Kolizey amfiteatri, Parfenon ibodatxonasi  
B) To'pqopi saroyi, Laax monastiri  
C) Ali Kapa va Chexel Sotun saroy ansamblari  
D) Eyfel minorasi, Luvr muzeyi

23.

Quyida berilganlardan qaysilarida **davlat-shaxs (davlat yoki hukumat rahbari)-voqeа mosligi** to'g'ri berilgan?

- 1) AQSH – Garri Truman – BMT ustavi kuchga kirdi;
  - 2) Ispaniya – Antonio de Spinola – Afrikadagi mustamlakalarga mustaqillik berildi;
  - 3) Qo'qon xonligi – Umarxon – Usmonli davlati Qo'qonning Buxoro amirligi oldida mustaqilligini tan oldi;
  - 4) Buxoro amirligi – Sayid Olimxon – Buxoro va Rossiya o'rtasida ilk marta savdo-elchilik aloqalari yo'lga qo'yildi;
  - 5) Xiva xonligi – Olloqulixon – Xiva xonligiga Perovskiy ekpetsiyasi yuborildi.
  - 6) Koreya – Qirol Yongjo – dvoryan bo'limgan qatlamga ham davlat xizmatida ishslash imkoniyati yaratildi.
- A) 1, 3, 5      B) 2, 3, 5      C) 1, 3, 4  
D) 2, 4, 6

24.

**Ikkinchi jahon urushi qatnashchilarini ularga tegishli ma'lumotlar** bilan moslashtiring.

- 1) Qo'chqor Turdiyev;
  - 2) Avazmat Niyozmatov;
  - 3) G'ulom Sultonov;
  - 4) Tojali Boboyev.
- a) 1941-yil iyunda Brest qal'asi uchun bo'lgan jangda halok bo'lgan;  
b) Xarkov viloyatidagi Trudolyubovka qishlog'i uchun jangda dushmanqa qarshi hujum uyushtirishda jasorat ko'rsatgan;  
c) o'zbeklardan birinchi bo'lib general-mayor unvoni berilgan;  
d) Berlindagi Silez vokzaliga birinchi bo'lib kirishga va bayroq o'rnatishga muvaffaq bo'lgan;  
f) Gitler Germaniyasi Reyxstagi gumbaziga birinchi bo'lib bayroq o'rnatgan 150-o'qchi diviziya tarkibida bo'lgan.
- A) 1-b, 2-a, 3-f, 4-d      B) 1-b, 2-a, 3-d, 4-f  
C) 1-a, 2-b, 3-f, 4-d      D) 1-c, 2-a, 3-f, 4-b

25.

**XIX asr so'nggi choragida Turkiya tarixiga oid** bo'lgan ma'lumotlarni aniqlang.

1) Buyuk Britaniya hukumatdan mamlakatdagi neft konlaridan foydalanish, tosh va temiryo'l qurish uchun uchun ruxsat oldi; 2) "Shahahshohbank" tashkil etildi; 3) mamlakat tarixida birinchi parlament tuzildi; 4) hukumat mamlakatni bankrot deb e'lon qilishga majbur bo'ldi.

- A) 1, 2    B) 2, 3    C) 3, 4    D) 2, 4

26.

Hindistonda 1998-yil hokimiyatga kelgan Atal **Bixari Vajpai davrida ... .**

- A) *Janubiy Hindistondagi tamillar separatizmini kuchsizlantirish tadbirlari o'tkazildi*  
B) *ko'plab sohalarda davlat monopoliyasi bekor qilindi*  
C) *Hindiston g'alla eksport qilishni boshladи*  
D) *"Yashil inqilob" deb atalgan agrar siyosat amalga oshirildi*

27.

O'zaro **muvoifiqlik saqlangan** javobni toping.

- I. Qadimgi Yunoniston; II. Qadimgi Rim;  
III. Mesopotamiya; IV. Qadimgi Misr.  
a) Tot; b) Apollon; c) Ishtar; d) Venera;  
e) Neptun; f) Shamash; g) Gelios; h) Xatxor.  
1) musiqa xudosi; 2) oy xudosi;  
3) donishmandlik xudosi; 4) yorug'lik xudosi;  
5) Quyosh xudosi; 6) hosildorlik xudosi;  
7) sevgi xudosi; 8) dengiz xudosi.  
A) I-g-5, II-d-7, III-c-6, IV-a-1  
B) I-b-4, II-d-7, III-f-5, IV-a-3  
C) I-g-5, II-e-8, III-f-4, IV-a-3  
D) I-b-4, II-e-8, III-a-2, IV-h-1

28.

Quyida berilganlardan qaysilari **Chig'atoy ulusi davlati tarixiga oid emas?**

- 1) ziroatchilardan olinadigan yer solig'i "xiroj" deb yuritilgan; 2) Samarqand va Buxoro shaharlarida "kepaki" deb nom olgan tangalar muomalaga chiqarilgan; 3) ijro hokimiyati boshlig'i beklarbegi bo'lib, devon ishlarini vazir boshqargan; 4) 1271-yilda Mas'ud Yalavoch tomonidan pul islohoti amalgalashirilgan.

- A) 1, 4    B) 2, 4    C) 1, 3    D) 2, 3

29.

Sovet tuzumining qatag'onlik siyosati davrida (XX asrning 20–30-yillari) O'zbekiston SSRda ko'tarilgan "**narkompros**" ishi tufayli qatag'onga uchragan shaxslar qaysi javobda berilgan?

- 1) Mannon Uyg'ur; 2) Bo'lat Soliev;  
3) Mahmud Hodiyev; 4) Ashurali Zohiriyl;  
5) Bois Qoriyev; 6) Mannon Abdullayev;  
7) Nodir Saidov.  
A) 1, 3, 5, 7    B) 2, 3, 4, 6    C) 3, 5, 6, 7  
D) 1, 3, 4, 5

30.

Mualliflar va ularning asarlari **to'g'ri moslashtirilgan** javobni toping.

1. Alvaro Yunke

a) "Sevgi qo'shiqlari"

2. Rabindranath Thakur

b) "Muallima uchun atirgul"

3. Jek London

c) "Dengiz bo'risi"

d) "Tom tog'aning kulbasi"

e) "Hayotga qaytish yo'li"

f) "Qurbanlik qo'shiqlari"

- A) 1-b, 2-f, 3-c    B) 1-b, 2-e, 3-d  
C) 1-a, 2-f, 3-e    D) 1-b, 2-a, 3-c

**31.**

Chizmada nomi keltirilgan shaxslar va ularga tegishli ma'lumotlar **to'g'ri moslashtirilgan javobni toping.**

1. Aleksandr Popov

a) bug' mashinasini ixtiro qildi

2. Tomas Nyukomen

b) ilk parovozni konstruksiyaladi va yasadi

3. Richard Trevitik

c) po'flat eritishning yangi usulini kashf qildi

d) suyuq cho'yanni tozalash usulini yaratdi

e) radio signalni uzoqqa uzatishga qodir qurilmani patentladi

f) dunyoda birinchi marta radiotelegramma uzatdi

A) 1-f, 2-a, 3-b

C) 1-e, 2-c, 3-a

B) 1-e, 2-d, 3-b

D) 1-f, 2-a, 3-c

**32.**

Qaysi javobda **o'rta asrlarda vujudga kelgan davlatlar to'g'ri berilgan?**

A) *Koguryo, Pekche, Sin davlati*

B) *Quddus qirolligi, Min imperiyasi, Bolgariya*

C) *Inklar davlati, Gana davlati, Chjou davlati*

D) *Oltin O'rda, Mali davlati, Chin davlati*

**33–35-test topshiriqlariga mos keluvchi javoblarni (A-F) javob variantlaridan tanlang.**

**33.**

Berilgan shartnoma (hujjat)lardan qaysi biri **eng oldin** imzolangan?

**34.**

Qaysi shartnoma (hujjat) Ukraina janubi-sharqida Donetsk va Lugansk viloyatlarida Ukrainianing yangi hukumati kuchlari hamda Rossiya qo'llab-quvvatlagan qurolli guruqlar o'rtasida to'qnashuvlar kuchayishi ortidan imzolangan?

A) Belovej shartnomasi

B) Shengen konvensiyasi

C) Oslo-I kelishuvi

D) Maastricht shartnomasi

E) Minsk-1 shartnomasi

F) Olmaota deklaratsiyasi

G) Ashboxod deklaratsiyasi

**35.**

Qaysi shartnoma (hujjat) natijasida MDHga a'zo davlatlarning soni 11 taga yetgan?

**JALOL BOLTAYEV**  
REPETITOR, TESTLOG

ONLAYN VA OFLAYN O'QUV KURSLARI

TARIX

GEOGRAFIYA

HUQUQ

HOZIROQ KURSLARGA RO'YXATDAN O'TING!

**KAFOLATLI** SHARTNOMA ASOSIDA  
**O'QUV KURSLARI**

"ARASTU" O'QUV MARKAZI  
@TESTLIDER 97-299-00-66

NATIJA  
KAFOLATI



